

## LINGVOPOETIKA SOHASINING VUJUDGA KELISHI VA UNING O`ZBEK FILOLOGIYASIGA TA`SIRI

*Qo`qon davlat pedagogika instituti Boshlang`ich ta`lim kafedrasi o`qituvchisi  
Akbarova Xolisxon*

**Annotatsiya.** Maqolada lingvoetika sohasining vujudga kelish istiqbollari va o`zbek tilshunosligiga shu sohaning riojlanishida asosiy hissa qo`shgan olimlar haqida ma`lumotlar keltirib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** lingvopoetika, badiiy asar tili va uni yuzaga keltiruvchi omillar, lingvopoetikaning tadqiq etilishi.

**Аннотация.** В статье представлена информация о перспективах становления лингвоэтики и ученых, внесших основной вклад в развитие узбекской лингвистики.

**Ключевые слова:** лингвопоэтика, язык художественного произведения и факторы, его порождающие, исследование лингвопоэтики.

**Annotation.** The article cites information about the prospects for the emergence of the field of linguooetics and scientists who made the main contribution to the rioglanism of this field to Uzbek linguistics.

**Keywords:** linguopoetics, the language of a work of art and the factors that make it possible, the study of linguopoetics.

Lingvopoetikani stilistika, ritorika, badiiy asar tili kabi fan sohalarining tarixiy taraqqiyoti vujudga keltiradi. Bu masalalar bo`yicha g`arb filologiyasida, jumladan, tilshunosligida ko`plab izlanishlar amalga oshirilgan bo`lib, dastlab G.E.Lessing, S. Soparta, M.Birvish, R. Yakobson, B.Larin, Yu.M.Lotman, Y.Ive, L.Shitser keyinroq V.M.Jirmunskiy, G.O.Vinokur, V.Vinogradov, A.A.Potebnya, M.M.Baxtin, A.B.Checherin, O.S.Axanova, A.A.Lipgart kabilar tilshunoslik va

adabiyotshunoslik fanlarining uyg`unligi haqidagi fikrni ilgari suradilar. Ayni damda, ularning asarlarida badiiy matn tahlili jarayonida til hodisalari tahliliga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlanadi. Adabiyot tilning “bezangan, ziynatlangan bir shakli”[1] deb bilgan Fitrat “Adabiyot qoidalari” asrida badiiy tilning o`ziga xosliklari, uslub bilan bog`liq muammolar, badiiy san’atlar va ularning yuzaga kelishida til vositalarining o`rni, badiiy asar tilidagi maqbul va nomaqbul jihatlar kabi masalalarni badiiy asarlar tilidan olingan aniq misollar orqali sinchkovlik bilan tahlil qilingan. Zamonaviy o`zbek filologiyasida XX asrning birinchi yarmida badiiy asar tilini o`rganishni boshlanishi ikki ulkan alloma-adabiyotshunos va adib Izzat Sulton[2] va zabardast tilshunos Ayub G`ulom[3] nomlari bilan bog`liq ekanligini aytb o`tishimiz lozim. Ular badiiy tilni tahlil qilishning adbiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazarlaridan ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillarini ko`rsatib bergenlar. Akademik Sh. Shoabdurahmonovning 1949-yilda himoya qilgan “Ravshan” dostonining til xususiyatlarini tadqiqiga bag`ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi[14] ham badiiy til muammolarini o`rganishdagi samarali ishlardan birdir. Tilshunos olim G` Abdurahmonov adabiy asar tilini o`rganish haqidagi maqolasida badiiy asar tilini tadqiq etishning o`ziga xos yo`llarini belgilab bergen. Olimning alohida ta'kidlashicha, ko`p hollarda asar asar tili haqidagi ishlarda “tanqidchilar yoki o`qituvchilar biror asarni tanqid qilar ekanlar, asardagi qahramonlarni salbiy va ijobiy obrazlarga bo`lib, ularning har birini xarakterlash bilan cheklanadilar, asrning tili, bu tilning mazmunga munosabati, voqeа-hodisalarni tasvirlashda qanday til vositalaridan foydalanish, yozuvchining bu sohadagi yutuq va kamchiliklari e'tibordan chetda qoldi ( yoki ana shunday tahlil yakunida asrning tili haqida hech qanday ahamiyati bo`lmagan bir-ikki og`iz so`z aytish bilan kifoyalanadilar). shuni esda tutish kerakki, asrning tili, asarning mazmunini tahlil qilgandan so`ng emas, balki uning mazmun tahlili bilan barobar olib borilishi zarur. Yozuvchi umumxalq tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, adabiy tilni boyitadi, mukammalashtiradi. Yozuvchining mazkur imkoniyatlarda qanday foydalanganligini o`rganish asosiy vazifalardan birdir”[15]. Badiiy asar tilini bu tarzda tahlil qilish to`ri emasligini muallif aniq dalillar

bilan ohib bergen, badiiy tilni tadqiq qilishda e'tibor qilinishi shart bo'lgan jihatlarni ko`rsatib o'tgan. Lingvopoetika sohasi bugun paydo bo'lgan soha emas, bu termin ifodalagan tushuncha tarkibidagi fanlar qadimdan filologik sohaning tarkibida, bu soha esa ijtimoiy fanlar qatorida, xususan, falsafa tarkibida o'rghanilgan. Keyinchalik lingvistika va poetika kabi fanlarning yangi ilmiy tushunchalar va ilmiy paradigmalar sifatida mustaqil fanga aylanishi ikki fan oralig`idagi izlanishlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Lingvopoetika sohasiga bo'lgan bunday ehtiyoj ikki fan uchun ham birdek xizmat qiluvchi uslubshunoslikning rivojlanishi bilan bog`liq bo`ldi. Lingvistika va adabiyotshunoslikning o`zaro munosabatlari hanuzgacha muammo bo`layotganligi tilshunos olim V.V.Vinogradov asarlarida ham o`z aksini topgan. Boshqa san'at turlaridan farqli o`laroq adabiyot so`z san'atidir. Badiiy asarlarning g`oyaviy-badiiy xususiyatlari so`z orqali ro`yobga chiqadi. Shuning uchun ham so`zning asar mazmunini aks ettirishdagi roli beqiyosdir. So`zning o`ziga voqelikni obrazli aks ettirishda ojizlik qiladi, bu bilan badiiy asarda qo`llanayotgan lingvistik birlik-so`z lingvopoetik xususiyatlarni ifodalashda yozuvchidan o`ta zukkolikni talab qiladi. Shu ma'noda yozuvchi badiiy asardagi voqelikni tasvirlar ekan, kitobxonga uning nozik tafakkuriga ta'sir qiluvchi rang-barang tasvirlarni har-hil lisoniy vositalar yordamida aks ettiradi. Bunday ifodalanish ba'zida adabiy til me'yorlariga zid qo'yiladi, zidlanish lisoniy vositalar ko`magida aks ettirilganligi uchun shakl va ma'nodagi rang-baranglik lingvopoetik vazifa bajaradi. Voqealarning badiiy tasvirida shunday vaziyatlar vujudga keladiki, ularni lisoniy shakllar bilan ifodalashning imkonini bo`lmaydi. Bunga milliy mentalitet va milliy urf-odatlar yo`l qo`ymaydi. Shuning uchun ham biror predmet, narsa, hodisalar obrazli vositalar yoki ramzlar orqali tasvirlanadi. Bunday vaqtarda nolisoniy va ekstralinguistik vositalardan ham foydalilanish mumkin bo`ladi. Badiiy asar tili murakkab va o`ziga xos hodisa. Tilshunoslik, umuman, filologiya tarixida uni tahlil qilishga turlicha yondashib kelingan. Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati, ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlari, leksik, fonetik va grammatik o`zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida

o`sha davrga oid asarlarning tili tahlil qilinadi. Tilning hozirgi holati, undagi tegishli hodisalarini tadqiq etish ham bundan mustasno emas. Bunda badiiy asarlar yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun fakt bo`lib hizmat qiladi. Har qanday badiiy asar tili muayyan umumxalq tilini o`zida aks ettiradi. Tildagi o`zgarishlar, evrilishlar rivojlanishlarning eng yorqin namunasi chinakkam san'at darajasidagi badiiy adabiyotdir. Davr adabiy tilining me'yorlarini belgilashda haqiqiy "so`z generallari" (F. Buslayev iborasi) bo`lmish mahoratli yozuvchilar asarlarining tili o`lchovlarning asosiyalaridan hisoblanadi. Hozirgi o`zbek tili bilan bog`liq izlanishlarning aksariyatida tahlilga tortilgan materialning manbai ham o`zbek yozuvchilarining asarlaridir. Bizga shunisi malumki, lingvopoetikaning yuzaga kelishi bilan bog`liq masalalar ko`plab tadqiqotchilar e'tiborini tortib, baxs va munozaralarga sabab bo`lgan. Lingvopoetika asosini tashkil qiluvchi lingvistika nima?, poetika nima? Degan savollarni nazariy jihatdan asoslash yo`nalish mohiyatini yoritishda yordam bo`ladi. Fransuz tilshunosi poetikada lingvistik tahlilni qo`llash chegaralari borasida fikr yuritib, adabiyotshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlarda lingvistik tahlilni qo`llash bu borada uchraydigan murakkabliklar haqida to`htalib o`tgan. Lingvopoetik tadqiqotlar doirasida, bizningcha ham, faqat poetik tahlil yoki lingvistik tahlilning yetakchilik qilishi mumkin emas. Lingvopoetikada lingvistik hamda poetik tahlil uyg`unlikda tadqiq etilishi kerak. Shu sabab ham N. Ryuvetning qarashlarida poetik strukturani qamrab olgan lingvistik birliklar chegarasi sohaning ustuvor masalalaridan biri sanaladi. Lingvopoetikaning murakkabligi shundaki, har ikki soha tadqiqot ob`ekti birlashishi va lingvopoetika aynan tilshunoslik sohasi uchun hizmat qilishi, mohiyatan muallifning o`tkir nigohi va poetikasi lisoniy vositalar bilan ifodalanishini o`rganuvchi soha sifatida ajralishi kerak.

Badiiy asarning lingvistik tahlilida yozuvchi maqsadi, niyati, asar g`oyasi va mazmunini aks ettiruvchi lisoniy vositalar va ularning xususiyatlari o`rganilsa, adabiyotshunoslik esa mavjud voqelikni tahlil qiladi, ya`ni badiiy asarning poetik funksiyalari sotsiologiya va psixologiya fanlari bilan uzviy bog`liqlikda o`rganiladi, ushbu fanlarsiz poetik tahlilni amalga oshirib bo`lmaydi. Chunki badiiy asarda

tasvirlangan qahramonlarning xarakteri, ruhiyati hamda ularning ijtimoiy mavqeい asar suyujeti va g`oyasini ochishda muhim rol o`ynaydi. Har qanday asar mazmuni so`z orqali ohib beriladi, so`z va uning ma`nolari tilshunoslik fani orqali ohib beriladi. Badiiy asar tilini nutqning funksional uslublardan biri – badiiy asarning namoyon bo`lishi tarzida o`rganish ham muhim va zaruruy yo`nalish bo`lib, unda, ta`bir joiz bo`lsa, tirik tilning o`ziga xos, yozuvchining individual mahorati mahsuli sifatidagi va ayni paytda uning “men”i ham o`z ifodasini topgan harakati tahlil qilinmog`i lozim. Aniqroq aytiladigan bo`lsa, badiy asar tili “san’at tili” ma’nosida talqin, tahlil va tadqiq etilib, tegishli xulosalar qilinmmog`I lozim.

Badiiy asar tilini “stilik aspek” da tahlil qilishda ana shu maqsad ko`zda tutiladi, ammo bu maqsadga erishish hamma uchun ham oson kechmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar IV jild .... 132-bet. Sultonov
2. I. Badiiy asarning tili // O`zbekiston adabiyoti va san’ati, 1939. № 5
3. G`ulomov A. Badiiy adabiyotning tili haqida // Adabiyot va san’at. 1941, № 1
4. Sh. O xudojestvennix osobennostyx poemи “Ravshan”. Avtoref. Dis. k-ta filolog.nauk. – Toshkent, 1949
5. Abdurahmonov G`. Adabiy asar tilini o`rganish haqida // O`zbek tilini o`qitish metodikasi masalalari.-Toshkent, Fan, 1966. 4-11-betlar.
6. Mirhojjiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1599-1604.
7. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
8. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 78-82.

9. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O ‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O ‘RNI. Scienceweb academic papers collection.
10. Alijonovna, M. D. (2023). Terms-language wealth. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 2(3), 58-62.
11. Alijonovna, M. D. (2022). THE ROLE OF TERMS IN LINGUISTICS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 9, 144-152.
12. Alijonovna, M. D. (2023). Terms-language wealth. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 2(3), 58-62.
13. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.
14. Alijonovna, M. D. (2022). THE ROLE OF TERMS IN LINGUISTICS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 9, 144-152.
15. BADIY MATNDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA OID TERMINLARNING USLUBIY XOSLANISH IMKONIYATLARI MD Alijonovna Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 3, 169-174
16. Linguacultural features of agricultural terms MD Alijonovna LANGUAGE AND LITERATURE PROCEEDING, 16-19